

MANZARALI IKKI YILLIK O‘SIMLIKLAR

Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Biologiya (turlari bo‘yicha)
yo‘nalishi 3 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ikki yillik o‘simliklar birinchi yili birlamchi o‘shni boshdan kechiradi ya’ni bu davrda uning vegetative tuzilmalari ildiz, poya, barg rivojlanadi. Ikkinchi yili esa uning generative organlari shakllanadi ya’ni gullab, meva va urug‘ hosil bo‘ladi. Bu guruhdagi o‘simliklar xilma xil varang barang bo‘lib, xushmanza ekini sifatida foydaniladi. Bularga kapalakgul, chinnigul, qo‘ng‘iroqgul kabi manzarali o‘simliklarni misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari ulardan guldastalar yasash uchun ham o‘stiriladi.

Kalit so‘zlar; ; urug‘, barg, meva, ko‘sakcha, gul, xilma-xil, poya, o‘t, ikki yillik, rang barang, yetishtirish, hosildorlik, to‘pgul, xushbo‘y, qo‘ng‘iroqsimpn, ilsiz bachkilari, gulkosacha, rezavor, guldasta.

Ikki yillik - manzarali o‘tsimon o‘simliklar gruppasiga ko‘proq ikkinchi yili ochiladigan va urug‘ beradigan o‘simliklar kiritiladi. Chinnigullar (turetskaya), peristaya (pat shaklidagi), grenadin, shuningdek, qo‘ng‘iroq gullar janubiy viloyatlarning qulay sharoitida ikki yildan ortiq umr ko‘rishi mumkin bo‘lsa ham, ko‘p yillik o‘simliklardan hisoblansalar ham xush manzara hosil qilish amaliyotida ulardan ikki yillik o‘simlik sifatida foydalaniladi. Bu guruhdagi barcha manzarali o‘simliklar urug‘dan ko‘paytiriladi. O‘zbekiston sharoitida qishni bemalol o‘tkaza oladi. Erta bahorda ularning o‘shisi tezlashadi, yozda uzoq vaqt ochilib turadi. Lekin qish sovuq kelgan yillarda ularning ba’zilari nobud bo‘lishi, issiqroq bo‘lganda esa deyarli ko‘karib turishi, hatto ochilishi (kapalakgul, dastargul) mumkin. O‘rta Osiyoda keng tarqalgan ikki yillik manzarali o‘simliklar kapalakgul, bo‘tako‘z, qo‘ng‘iroqgul, dastargul va boshqalardir.

Kapalakgul

Kapalakgul (*Viola hortensis grandi fl ora Witt.*) — binafshadoshlar oilasiga mansub bir va ikki yillik manzarali o‘simlik. Yevropa va Osiyoda o‘sadi. Poyasi tuksiz. Bargi tuxumsimon, uzun bandli. Guli ko‘pincha uch tusli, ikki jinsli, gulbandi uzun. Kosachabarg va tojbarglari 5 tadan, tutashmagan. Changchisi 5 ta, urug‘chisi bitta. Mevasi — ko‘p urug‘li ko‘sak. Erta bahordan kech kuzgacha gullaydi. Kapalakgul manzarali o‘simlik sifatida xonadonlarda, istirohat bog‘larida o‘stiriladi.

Chinnigul

Chinnigul (Dianthus) — chinniguldoshlar oilasiga mansub bir yillik, ikki yillik va ko‘p yillik manzarali ekma gul. 300 dan ortiq turi ma‘lum. Yevropa, Osiyo va Afrikada tarqalgan. Dashtlar, o‘tloqzorlar, qumloq yerlarda o‘sadi. Poyasi bo‘g‘imlarga bo‘lingan. Barglari qarama-qarshi, bandsiz, to‘g‘ri nashtarsimon yoki uchi o‘tkir. Gullari aktinomorf, gul a‘zolari doira bo‘lib joylashadi. Gulyonbargchasi kosachasiga yaqin joylashgan. Guli bitta to‘pgulda, yirik, qalin, qatma-qat, xushbo‘y, rangi har xil (qizil, pushti, sariq, oq va boshqalar). Chinnigulning ko‘pgina turlari manzarali bo‘lganligi uchun, ekib ko‘paytiriladi. Janubiy Yevropada keng tarkalgan bir va ikki yillik golland chinniguli (*D. caryophyllus*) turi chinnigulning manzarali navlarini yaratishda asos bo‘lgan. Ko‘pgina mamlakatlarning sanoat gulchiligida ochiq yerlarda va issiqxonalarda yetishtiriladi. Ko‘p yillik patli turining gullari mayda, g‘oyat xushbo‘y, qalin to‘pgulga yig‘ilgan. Gulchilikda ahamiyati katta. Chinnigul urug‘idan (urug‘i issiqxonalarda yanvar—maydi ekiladi) va qalamchasidan (noyabr—mart oylarida ildiz oldiriladi) ko‘paytiriladi. O‘zbekistonda manzarali o‘simlik sifatida yetishtiriladi.

Qo‘ng‘iroqgul

Qo‘ng‘iroqgul (Companula) - qo‘ng‘iroqguldoşlar oilasiga mansub. Qo‘ng‘iroqguldoşlar oilasiga 50 dan ortiq turkum va 1000 dan ortiq turga mansub bir, ikki va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar kiradi. Qo‘ng‘iroqgulning bo‘yi 15—25 sm, ko‘p poyali, barglari keng tuxumsimon, keng elipssimon yoki yumaloq. Gullari aktinomorf yoki zigamorft, gultoji qo‘ng‘iroqsimon, zangori, oq, ba‘zan binafsha rangda alohida joylashgan. Gulkosachasi 5 bo‘lakli, changchisi 5 ta. Ro‘vak, shingil va boshqa to‘pgullar hosil qiladi. Iyun—iyul oylarida gullab urug‘laydi. Mevasi ko‘sak yoki rezavor. Tog‘larda qoyalarning yoriqlarida o‘sadi. Manzarali turi urug‘idan, ildiz bachkilari orqali ko‘paytiriladi. Baland bo‘yli qo‘ng‘iroqgul guldasta qilish uchun, past bo‘ylilari esa gulzor chetlarini bezash uchun ekiladi. Ayrim turlarining ildiz va barglari ovqatga ishlatiladi. Oila vakillari Yer yuzida keng tarqalgan qo‘ng‘iroqgul (*Companula*) turkumining o‘zbekistonda 6 turi o‘sadi. Ular asosan tog‘larda o‘sadi. Oila vakillari manzarali o‘simlik sifatida juda qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.O‘. Pratorov, L.Shamsuliyeva, E. Sulaymonov, X.Axunov, K. Ibodov, V. mahmudov, Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) Toshkeny.
2. Botanika (o‘quv qo‘llanma). Toshkent 2018.
3. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoirra Rafiqova Botanika asoslari (o‘quv qo‘llanma). Toshkent 2009.
- 4.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 5.www. ziyouz.com kutubxonasi.